


Jarqo'rg'on tumanida g'alladan bo'shagan maydonlar dehqonchilik qilish uchun ishsiz fuqarolarga ajratib berilmoqda. Bugun viloyat hokimi mazkur tumanda bo'lib, "Surxonlik Sherzod SSS" va "Kamola Kamolbek Quyun" fermer xo'jaliklarining g'alladan bo'shagan maydonlarini fuqarolarga ajratib berish tadbirlarida ishtirok etdi.



Maydonlar asosan "daftarlar"da turgan, ishsiz fuqarolarga ekin ekishga tayyor holda hosildor urug'lar bilan ajratib berildi. Ushbu fermer xo'jaliklari tomonidan g'allaning rejadan orttirilgan qismidan xo'jalik ishchilariga 1 tonnadan, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar vakillariga 200 kilogramdan bug'doy tarqatildi.

Shuningdek, fermer xo'jaligining mirishkor ishchi-xodimlari, suvchilar, mexanizatorlar va kombayn operatorlariga viloyat hokimligining sovg'alari - maishiy texnikalar topshirildi.

Tuman mutasaddilariga g'alladan bo'shagan maydonlarni "Bir kontur – bir mahsulot" tamoyiliga amal qilgan holda hosildor urug'lar bilan birga belgilangan rejaga muvofiq to'liq ajratib berish vazifasi topshirildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)